

KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA DIVIDEND SIYOSATINI OPTIMALLASHTIRISH

Ergasheva Sarvinoz Egamqul qizi
Toshkent moliya instituti o'qituvchisi
+998941996600
meliboyeva.ergasheva@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10065875>

Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati haqida 53-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda O'RQ-197 sonli Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 52-son, 513-modda belgilab qo'yilgan.

Qonunga to'xtaladigan bo'lsak, dividend foydaning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan, qayta investitsiya amalga oshirilganidan so'ng aksiyadorlik jamiyati ixtiyorida qoladigan, aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi kerak bo'lgan qismidir.

Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

Aksiyadorlar jamiyatining umumiy yig'ilishi qaroriga binoan dividend pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari bilan to'lanishi mumkin.

Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Dividend - bu aksionerlarning pul daromadi hisoblanadi va o'z mablag'larini aksiyasiga jalb qilgan kompaniyaning ijobiy ishlayotganligi to'g'risida ma'lum bir darajada habar berib turadi. Hisobot davrining foydasini taqsimlashning soddalashtirilgan yo'nalishlarini quyidagicha tasvirlash mumkin:

- foydaning bir qismi dividendlar ko'rinishida to'lanadi;
- qolgan qismi esa kompaniyaning aktivlariga qayta investitsiyalanadi. Foydaning qayta investitsiya qilingan qismi kompaniyaning faoliyatini moliyalashtirishning ichki manbasi hisoblanadi, shundan ko'rinib turibdiki, dividend siyosati aksiyadorlik jamiyatida jalb qilinayotgan va moliyalashtirishning tashqi manbalari miqdoriga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Aksiyadorlik jamiyatining dividend siyosatining tashkil etish yo'nalishlari tahlili bilan bir qatorda, muqobil manbalardan moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyatlarini ham tahlil qilish kerak. Bular:

- o'tgan davrda shakllangan o'z sarmoyasi zahiralarining yetarliligi;
- qimmatli qog'ozlar emissiyasi hisobidan qo'shimcha sarmoyani jalb etish qiymati;
- qo'shimcha qarez sarmoyasini jalb etish qiymati;
- moliya bozorida kreditlardan foydalanish imkoniyati;
- kompaniyaning joriy moliyaviy faoliyati bilan aniqlanadigan kreditga layoqatlilik darajasi.

Aksiyadorlik jamiyat shakllantirishda ilgari olindan kreditlar bo'yicha to'lovlarning kechiktirib bo'lmasligi omilini ham ko'rib chiqish lozim, to'lov qobiliyatini ushlab turish dividend to'lovlarning o'sishiga qaraganda ancha ustuvor vazifa hisoblanadi.

Dividend siyosatini tashkil etishda hamda amalga oshirishning yakuniy bosqichi kuzatuv kengashi tomonidan dividendlarni to'lash siyosatini tashkil etish quyidagilardan iborat:

1. Dividendlarni naqd pulda to'lash. Bu dividend to'lovlarning en sodda va keng tarqalgan shakli.
2. Dividendlarni aksiyalar bilan to'lash. Ushbu shakl aksiyadorlikga dividendlar summasidagi yangi chiqarilgan aksiyalarning taqdim etilishini nazarda tutadi. Bunday shakl keyingi davrda

aksiyadorlik sarmoyasining o'sishini ko'zlovchi aksiyadorlarda qiziqish uyg'otadi. Joriy daromadni afzal ko'ruvchi aksiyadorlar esa qo'shimcha aksiyalarni fond bozorida sotish huquqiga ega.

3. Dividendlar jamiyatning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

Kapital bozorini rivojlantirishning muhim omili bu dividend siyosatini takomillashtirish ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Shu tufayli kapital bozori rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olgan holda korporativ harakatlar standartini joriy etish va dividendlarni to'lash tartibini takomillashtirish vazifasi

xukumat tomonidan belgilangan. Kapital bozorini rivojlantirishda dividend siyosati roli katta bo'lib, uni quyidagilarda ko'rish mumkin:

- kapital, moliya bozorini rivojlantirish omillaridan biri -daromadlar qayta taqsimlanishi orqali iste'mol bozorini

muvofiqlashtirish vositasi;

- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish imkonini beradi;

- dividendlardan soliq to'lovlari hisobiga davlat byudjeti daromadlarini oshishiga imkon beradi;

- investitsion jozibadorlikka ta'sir etadi;

- aksiyalar kursini shakllantiruvchi omil hisoblanadi;

- moliyaviy resurslarni shakllantirish jarayoniga ta'sir etadi;

- aksiyadorlik jamiyatlari kapitalizatsiya hajmiga ta'sir o'tkaza oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish masalalariga yuqori darajada e'tibor berilayotganligi kapital bozoridagi talabni oshirish bo'yicha mavjud muammolarning kompleks yechimini ta'minlashga, kapital bozoridagi talabni oshirishni rag'batlantirishga qaratilgandir. Uning bir qismi sifatida dividend siyosatini rivojlantirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Kapital bozorini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar rejasi albatta muhim ahamiyatga ega. Lekin bu tadbirlar avvalo mamlakat umumiy iqtisodiyoti yuksalishi bilan bir qatorda ijtimoiy sohani rivojlantirishga, ishsizlik muammosini xal qilishga, jamiyatda va iqtisodiy subyektlar o'rtasida daromadlarning to'g'ri va adolatli taqsimlanishiga xizmat qilishi shart.

References:

1. Sherkuzieva, N. and Omonov, S. (2020) "The current state of dividend policy in joint-stock companies in uzbekistan and "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий журнали. №3, июнь, 2021 й. ISSN: 2181-1016.
2. Its development ways,"International Finance and Accounting: Vol. 2020: Iss. 5, Article 16. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss5/16>
3. Kunarov, R. and Buriyev, J. (2020) "Features of the dividend policy of commercial banks," International Finance and Accounting: Vol. 2020: Iss. 4, Article 17. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss4/17>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli Farmoni.